

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN
ISLOHOTLAR

Turg'unjonova Nozimaxon O'tkir qizi

*Oriental universiteti Pedagogika va
psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'limni rivojlantirishda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa yoshlarga va ayollarga yaratilayotgan islohotlar haqida so'z boradi. Bu islohotlar o'z navbatida yurtimizning ravnaqi uchun muhim ahamiyatga ega va dolzarb mavzulardandir.*

Tayanch so'zlar: *Ijtimoiy yordam, sifatli ta'lim, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy fanlar, uzluksiz ta'lim, pedagogik mahorat, yoshlarga oid siyosat, tajribali pedagog, zamonaviy o'quv reja, ijtimoiy soha.*

Hozirgi ilm fan jadal taraqqiy etayotgan zamonda bizning ham yurtimizda zamonaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Buning isbotini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni, "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hamda joriy etilgan ta'lim to'g'risidagi qonun, shu jumladan oddiy maktablarning ma'lum bir yo'nalishlarga ixtoslashtirilib, maxsus maktablarga aylantirilishi, iqtidorli bolalar uchun prezident maktablarining joriy etilishi, talaba yoshlarga turli xil imkoniyatlar va shart sharoitlarning yaratilishi, jumladan ayollarning yetuk mutahasis bo'lib yetishishlari va qulay va sifatli ta'lim olishlari uchun barcha shart sharoitlarni yaratishni ko'zda tutgan. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmonini yaqqol misol tariqasida olsak bo'ladi. Zamonaviy ta'limga berilayotgan mana shunday e'tibor ham hozirgi kunda barcha ta'lim jarayonlari borasida islohotlar o'tkazib isloh qilish naqdar muhim va ahamiyatli vazifa ekanligini yaqqol isbotidir. Tabiiyki yoshlar kelajak poydevori bo'lsa ayollarimiz va onalarimiz ularning tarbiyalovchilaridir. Ota bobolarimizdan meros bo'lib qolgan "Har qanday kuchli erkakning ortida kuchli ayol turgan bo'ladi" degan gaplari bejiz emas albatta. Ya'ni bu yerda o'zimizga ham ma'lum bo'lgan buyuk allomalarimiz, ilm fanda dunyoga teng bo'lgan juda katta meros

qoldirganlar. Ularning bu darajaga yetishlarida tabiiyki onalarining xizmatlari katta bo'lgan. Hozirgi kunda ham ana shunday jahonga teng bo'ladigan olim va olimalarni yetishtirib chiqirish ulkan vazifamizdir. Bugungi kungacha bizning yurtimizda ayollar oilali bo'lganliklari va ham turmush, ham farzand, ham o'qish masalalari, ham moliyaviy sharoit masalalari baravar to'qnashganligi bo'yinlarida katta ma'suliyatlarni jamlagan. Va buning natijasida ko'pchilik ayollar oilaviy sharoitlari yohud moliyaviy sharoitlari ko'tarmaganligi sababli o'qishdan voz kechishlariga to'g'ri kelgan. Bizning xalqimiz bolajon xalqligini va serfarzandlikni yaxshi ko'rishlari ham ularning moliyaviy holatlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Lekin hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar natijasida va ta'limda qulay shart sharoitlar yaratilishi kam ta'minlangan, moliyaviy sharoiti yohud ota onasining yoki o'zining nogironligi bo'lgan yoshlarga, ayollarga moliyaviy jihatdan turli shart sharoitlar yaratib berilishi, ayollar uchun magistraturada tahsil olishning bepul qilinishi yurtimizdagi ilm olishni istagan yoshlar va ayollarga keng imkoniyat eshiklarini ochmoqda.

Shu jumladan ijtimoiy pedagogikaning rivojlantirilishi ham juda muhim ahamiyat kasb etib, yetim bolalar, hulqida turli og'ishlar bo'lgan, nogironligi bo'lgan bolalar va shaxslarning ham ta'lim ola bilishi va jamiyatga aralashib keta bilishi va kelajakda o'z yo'llarini topa bilishlari uchun juda ahamiyatlidir. Biz mana shunday insonlarning ham jismoniy nuqsonlari borligi va hulqida, ruhiyatida og'ishlar borligiga qaramay ularning ham ilm fan sohasida yoki o'zi qiziqqan biror bir kasb yoki mashg'ulotlarda ulkan yutuqlarga erishishlarini ta'minlay olishimiz, yoki ayrimlarining olimlik drajasigacha ko'tarilishiga sababchi bo'luvchi yetuk mutahasis ijtimoiy pedagog kadrlarni yetishtirib chiqarib bu sohalarda ham ulkan zafarlarga erisha olishimiz dolzarb masalalardandir.

Hozirgi axborot texnologiyalari zamonida o'qituvchilardan axborot texnologiyalaridan mohirona foydalana olish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etib sifatli ta'lim jarayonini tashkil etish, horijiy tillarni bilishi kabi alohida mahorat, tajriba, malaka va ko'nikmalar talab qilinmoqda. Hozirgi kunda o'qituvchilarning bunday bilimlarga ega bo'lishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan hurmat e'tiborni oshirish, muallim va ustozlarning qadri, sha'ni va g'ururini tiklash, ularni ham ma'naviy ham moddiy qo'llab quvvatlash bo'yicha ishlar davom ettiriladi.^[1-216]

"Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy

mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Biz esa bu masalani chuqur anglagan holda shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart.

Shu bilan birga oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalaraga dars berishdan iborat emas. Universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta katta loyihalarga jalb etishi kerak.

Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Shu bilan birga aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, butun uzluksiz ta'lim tizimini haqiqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit ta'lim kodeksini ishlab chiqish payti keldi" deya yurt boshimiz ta'kidlab o'tganlar.^[1-208]

Shu jumladan nashrdan chiqayotgan kitoblarning nafaqat saviyasiga balki yozuv psixologiyasiga ham yana ham katta etibor bershimiz, o'quvchilar o'zlarining mutahasisligi bo'lgan fanlarni ko'proq o'qishlari, rivojlangan mamlakatlar ta'limidagi darsliklar ko'lamidan andoza olishimiz kerak. Bu haqida prezidentimiz o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan edilar. Bu kitob bilan ishlash, yani kitobiy savodxonlikni va undan foydalanish samarasini yanada oshirisha xizmat qiladi.

Biz endi aniq maqsad qo'yib ushbu yetuk mutahasis ijtimoiy pedagoglarni tarbiyalash yo'lida diqqat e'tiborli bo'lishimiz darkor. Ayniqsa jiasmoniy nosog'lom bo'lgan yoki hulqida og'ishlar bo'lgan bolalar bilan ishlash tizmini yanada rivojlantirib ularning yetuk shaxs bo'la olishlariga katta hissa qo'shishimiz kerak. Ularning muammolari va sabablarini, yechimlarini vaqtida aniqlay bilib o'z vaqtida bartaraf etishimiz, ularni ilm ma'rifatga yo'naltirishimiz kerak. Kelajak avlodni tarbiyalash ustoz muallimlarning qo'lida ekanligi, insonning bilim olishga bo'lgan muhabbati ustoziga bo'lgan sevgisi va hurmati bilan bog'liq ekanligi, tarixda o'tgan buyuk shaxslarning ustozlari haqida berilgan tariflari va ular shogirdlarini o'zlaridanda kuchli bilim egasi qilib tarbiyalaganlari hech birimizga sir emas. Biz mana shunday kadrlarni tayyorlashimiz lozim. har bir o'qituvchi pedagog yuqorida sanab o'tilgan bilim, malaka, ko'nikma va sifatlarga ega bo'lishlari va ularni o'zlarida mujassam eta bilishlari lozim.

Xulosa: yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki demak biz jamiyatni, mamlakatni isloh qilmoqchi bo'lsak avvalo ta'lim jarayonlarini isloh qilishimiz dolzarb va asosiy masalalardan ekan. Bizning kelajak avlodlarimizni tarbiyalovchi bo'lajak onalarimiz, ya'ni ayolarimizning ta'lim olishlariga katta e'tibor qaratmog'imiz zarur. Chunki bizning yurtimiz kelajagimiz bo'lgan, ilmga chanqoq intellektual salohiyati yuqori yosh avlodni tarbiyalash aynan ularning qo'llaridadir. Keyingi masala esa ustoz murabbiylarning yuqori malaka, saviya ega bo'lishlari, yuqori darajadagi namuna bo'la oladigan hulqaga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Chunki farzandlarimizning ilmni sevishlari, o'z yo'nalishlarini mahkam tutishlari ularning qo'llaridadir. Ustozini yaxshi ko'rib hurmat qilgan inson fanga ham muhabbatli bo'lib, arzimas narsalarga ham undan voz kechmaydi va ustozini qiziqtirib fanga muhabbatli qila oladi. Buning uchun esa ustoz yuqorida sanab o'tilgan sifatlarga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari iqtidorli, ilmga chanqoq ammo o'qigani imkoniyati, sharoiti yo'q yoshlarga ham qulayliklar, imkoniyatlar yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida.
3. Sh.M.Mirziyoyev "tanqidiy tahlil".
4. Ijtimoiy pedagogika fanidan o'quv uslubiy majmua. S.B. Umarov. M.T.Ahmedova.
5. Ijtimoiy pedagogika. Mavlonova R.A. Vahidova N.H.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI

1. www.Arxiv.UZ
2. www.lex.uz